

YOSH DAVRLARIDA XARAKTER VA XARAKTER XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Shukurova Nasiba Xolmatovna
Andijon viloyati Ulug'nor tumani MMTB ga qarashli
15-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh davrlarida xarakteri va xarakter xususiyatlari haqida va uning o'ziga xos xususiyatlari yig'indisi, faoliyat va muloqotda yuzaga keladigan xamda shaxsga xos xulq – atvor usullarini namoyon qilishining psixologik usullari haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xarakter, xulq-atvor, munosabat, qatiyat, irodaviy sifatlar, yosh hususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlar, faoliyat.

Kirish O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan inson ma'naviyatini va salohiyatini yuksaltirish zamon talabi hisoblanadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda va davlat siyosati darajasiga ko'tarilayapti. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish zamon talabi hisoblanadi. Xarakter-shaxsnинг barqaror individual psixologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u faoliyat va muloqotda yuzaga keladi xamda shaxsga xos xulq-atvor usullarini namoyon qiladi. "Xarakter" termini fanga ilk bora qadimiy yunon olimi va faylasuf Teofrast tomonidan kiritilgan.

Asosiy qism "Xarakter" so'zi yunoncha «chiziq», «belgi», «sifat», «xususiyat» ma'nosini bildiradi. Bu so'z "xarasso" fe'lidan kelib chiqib, uni ushlarloq, chizmoq, qirqmoq, deb tarjima qilinishi mumkin.

Xarakter xususiyatlari bu shunday individual xususiyatlarki, ular insonning ma'lum vaziyatdagi xulq-atvorini ko'ra olish, aniqlashga yordam beradi. Insonni borliqqa bo'lgan hayotiy munosabatga ko'ra uning xarakter yo'nalganligini quyidagicha guruhash mumkin:

1. Jamiyatga bo'lgan munosabat. Atrof olamdagи narsa va hodisalarga munosabat. (masalan, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, tilga, kelajakka, ona tuproqqa muhabbat). Jamiyat, olamdagи narsa va hodisalarga bo'lgan munosabat: bu avvalambor vatanparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbatdir. Inson alohida vatanparvarlik hislarini tug'ilgan, yashnagan erlariga nisbatan namoyon qiladi, bu muhabbat o'z xalqining tarixiy o'tmishi, uning boy madaniyati, tili, uning porloq kelajagiga nisbatan ifoda etiladi. Bu muhabbat Respublikamizni mustaqillikka erishishi bilan yanada mustahkamroq, yorqinroq bo'lishi mumkin.

2. Mehnatga bo‘lgan munosabat: mehnat - hayot asosi, mehnatga bo‘lgan munosabat - mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishchanlik, mehnatda psixik qondirilganlik holati, mehnatdan quvonish, mehnat qilishga ehtiyoj sezish va qarama –qarshi sifatlar – mehnatga yuzaki munosabat, dangasalik va h.k.

3. Boshqa odamlarga munosabat. Boshqa kishilarga munosabat: bu ochiqlik va dilkashlik, qarama-qarshi sifatlar - yuzakilik, manmanlik. Bu sezgirlik, tezkorlik, qarama - qarshisi o‘z qobig‘ida o‘ranib olgan odamovilik, va nihoyat, bu muloyimlik va berilgan ishni vaqtida bajarish tezkorlikdir.

4. O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat: ushbu munosabat asosida insonning o‘ziga va boshqalarga nisbatan ko‘plab xarakter asoratlari shakllanadi, ular o‘z o‘rnida shaxs uchun muhim ahamiyatga egadir. Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolishi xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg’u berilishi) deb ataladi. Xarakterga ortiqcha urg’u berilishi ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda insonning boshqalarga nisbatan barqaror bo‘lgani xolda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflikning ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o‘zgarishlariga olib borishi mumkin. Masalan sezgirlik, tezkorlik, odamovilik va hokazo larni keltirib o’tishimiz mumkin. Shaxsning adekvat ijtimoiy adaptatsiyaga to’sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to’g’ri davolash sharoitlarida ba’zi tuzatishlarga berilsa ham mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo’rindir. Xarakter aksentuatsiyasi turlarini tasniflash ancha murakkablik tug’diradi va har xil nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi.

Xarakter aksentuatsiyasi- biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo’lishi mumkin. O’smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko’p uchraydi. O’tgan asrning ikkinchi yarmida, ya’ni 1968 yilda nemis psixiatri K.Leongard "aksentuatsiya" tushunchasini fanga kiritdi. U buni odatdagidan chetga chiqish, individual xususiyatlarning haddan tashqari kuchayishi deb ta’rifladi. Oradan to’qqiz yil o’tib, 1977 yilda, sovet olimi A.E.Lichko aniqroq va torroq "xarakterli aksentuatsiya" atamasidan foydalanishni taklif qildi. Aynan shu ikki olim (K. Leongard va A.E.Lichko) psixologiya faniga beqiyos hissa qo’shdilar, aksentuatsiyalarning yaqin, bir-birini to’ldiruvchi tushunchalari va tasniflarini ishlab chiqdilar. K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosini o’rganib uni shaxsda va turli xil yosh davrlarida ham namoyon bo’lishiga qarab quyidagilarni tasniflaydi:

Gipertim tip - haddan tashqari aloqaga kirishuvchan, ko’p gapiradi, imo-ishoraga, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko’pincha

xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

Distim tip - kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, muammoli vaziyatlardan o'zini olib qochadi, o'zi yolg'iz qolishni xohlaydi.

O'zining yoki birovlarining faoliyatini yetarliligi darajasini mustaqil ravishda baholashga urinib ko'rgan odamlar, odatda odatiy va patologik psixika va xulq-atvor o'rtasidagi chegara qayerda ekanligiga hayron bo'lishadi. Har xil xarakterli aksentuatsiyalar patologiya bilan chegarada klinik me'yorning yuqori darajasi sifatida tavsiflanadi. Xarakter xususiyatlari kelib chiqishining fiziologik sharoitlaridan biri-bu ko'chish mexanizmi asosida turli dinamik sterotiplarning hosil bo'lishidir. Temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xususiyatlarining paydo bo'lishidagi muhim psixologik sharoitlaridan biri. Inson xarakterining ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liq bir-biriga tobe organizmi uning tuzilmasi strukturasi deyiladi. Ruhiy xususiyatlarning o'zaro bog'langan tizimi asosida xarakter xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, inson xarakteri va uning namoyon bo'lish xususiyatlari turli xil yosh davrlarida o'ziga xos tarzda aks etadi. Chunki xarakter makonda va zamonda o'ziga xos namoyon bo'ladi. Xarakterning aksentuatsiyasi - bu shaxsni "oddiy" odamdan ajratib turadigan shaxs xarakter aksentuatsiyasini belgilangan talablar asosida diagnostkasini amalga oshirish orqali turli salbiy holatlarni oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi. Aynan xarakter aksentuatsiyasi bu jadallik bilan namoyon bo'lishi o'smirlik davriga borib taqaladi bunday psixologik xususiyatlar judayam o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi o'smirlarda yuqorida keltirilgan aksentuatsiya tiplari ijtimoiy sharoitlarda va oilaviy muxitda ijobiy yoki salbiy bo'lib shakilanadi bu esa o'smirlar egalab turgan davra, faoliyat jarayonlariga va dustlar davrasidagi munosabatlar erarxyasida shakilanadi. Yuqoridagi aksentuatsiya tiplarining ba'zilarida salbiy va psixopatiyaga moyillik xam kuzatiladi bu esa ma'lum bir miqdorda o'smir yoshdagi yig'it va qizlarda ta'lim sifatni va bilim egalashda yuzaga keladigan motivatsyani pasayishiga sabab bo'ladi. Bunday psixologik jarayonlarning xarakterdagi o'zgarishlarni oldini oish uchun eng birinchi navbatda ularga to'g'ri munosabat va o'smirlik davrida yuzaga keladigan kriziz davrlarini to'g'ri tushunib ota – ona va pedagoglar ularga yuqori bosim bermasdan, to'g'ri muomila qilish kerakligi va muloqotga bo'lgan extyojlarini qondirishi, ular bilan samimiy oxangda gaplashish, dardlarini tinglash orqali ularning ong ostida to'plangan dardlarini tashqariga chiqarish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Slovar`, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil
- 2) Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.

- 3) Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, “O‘qituvchi nashriyoti” – Toshkent, 1975.
- 4) V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.
- 5) Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
- 5) L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
- 6) E.G’.G’oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
- 7) R.Y.Toshtemirov, E.G’.G’oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004.